



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

2023-yil 28-noyabr

TOSHKENT-2023

UDK 04
KBK 93
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

Mas’ul muharrir:

Xudoyev G‘anijon – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tahrir kengashi a‘zolari:

Turg‘unova Nasiba – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Yakubov Zohidjon – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

Xudoyqulova Nilufar – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.



Qo'shiqni yakunlagandan so'ng Qishloq raisi kelib Shonazarni bu yerda qoldirish mumkin emasligini aytadi. Bir qancha urinishlardan so'ng qo'shni qishloqdagi mashhur baxshi (shoir)ga shogirdlikka Shonazarni yuborishadi. Shu bilan bir qatorda Shonazar Qishloq raisining qiziga muhabbat qo'yadi va unga uylanadi. Yillar o'tgandan so'ng Shonazar Baxshi dostonchilik va baxshichilik maktabida o'z o'rniga ega bo'lgan baxshilar qatoriga kiradi (o'z repertuaridan bir necha asarlar kuylaydi). Baxshilar va ularning ijodlariga bo'lgan e'tibor tufayli Shonazar Baxshi Tog'ayev Prezident tomonidan "O'zbekiston Xalq Baxshisi" unvoniga sazovor bo'ladi va xursandchilik bilan spektakl yuqori kayfiyatda yakunlanadi.

Spektaklning drammatizmi, qashilik va keskinliklar, ijobiy va salbiy obrazlar qisqa leytmotivlar orqali ko'rsatib o'tilganligini ham aytib o'tish joizdir.

Xulosa o'rnida, "Baxshi" spektakl tom ma'noda haqiqiy milliy musiqiy spektakl deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Milliy an'analar va qadriyatlar mujassamlashgan ushbu spektakl insonlarga ma'naviy ozuqa, qadriyatlarimizga bo'lgan yanada xurmatni oshirishiga yo'l ochib beradi. Baxshichilik ijodini yanada yoritgan ushbu spektakl Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri saxnalarida muvaffaqiyat bilan o'z chiqishlarini namoyon qilmoqda. O'ylaymanki, ushbu spektakl nafaqat o'zbek, balki, chet ellik insonlar tomonidan tomosha qilinib, ularni yanada o'zbek xalqi madaniy-ma'naviy boyliklari bilan yaqindan tanishishi va ularni o'rganish uchun juda ham tushunarli qilib ishlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hayitov Z. Doston ijrochiligi (Baxshichilik). – Toshkent. 2021.
2. Panjiyev Q. O'zbek xalq musiqa ijodi. – Toshkent. 2020.
3. Safarov O. O'zbek xalqlari etnografiyasi va folklori. – Toshkent 2007.
4. Murodova M. Folklor va etnografiya. – Toshkent. 2008.
5. Qo'chqorov G'. Folklor qo'shiqchiligi. – Toshkent. 2005.

XONANDALIK AMALIYOTIDA FARG'ONA – TOSHKENT MAQOM YO'LLARINING IJROCHILIK XUSUSIYATLARI

N.M. BEKBOYEVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI magistranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada maqom ijrochiligi, xususan maqom xonandalik amaliyotida ovoz ishlatish xususiyatlari haqida so'z yurutilib, aynan Farg'ona - Toshkent maqom yo'llari tarkibiga kiruvchi Miskinlar ijrochiligiga urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: Shashmaqom, maqom, hofiz, ovoz, tovush, miskin, Nasr, Saraxbor, Talqin, ishkami, tik ovoz.

Sharq xalqlari musiqa madaniyatida juda katta tarixiy, ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib qoldi. IX-XIX asr Sharq musiqa madaniyatiga oid tarixiy-nazariy asarlar va tarixiy-adabiy manbalarning ko'pchiligida maqomlar masalasiga alohida ahamiyat berilgan. Maqomlar Sharq xalqlari musiqasining asosini tashkil

etadi. Bebaho hisoblanmish maqomlarimiz murakkab shakldagi sho‘balardan tarkib topgan. Xususan maqomlarimizning eng yirik qismini tashkil etuvchi Shashmaqom tuzilish jihatidan bir-biridan ajralib turadigan ikki xil sho‘balar guruhiga bo‘linadi. Bularning birinchisiga Saraxbor, Talqin, Nasr kabi sho‘balar va Ufar qismi, ikkinchisiga esa asosan savt-mo‘g‘ulcha shaklida tuzilgan sho‘balar kiradi.

Shashmaqom namunalari, qolaversa turli maqom yo‘llarini ijro etish ijrochidan katta mahorat va chuqur malaka talab etadi. Maqomlar o‘zining mukammalligi bilan bir qatorda xalqchil uslub ham deyishimiz mumkin. Maqom ijrochiligida bir hofizning ijro uslubi va uning aytgan ashula yo‘li ikkinchisiga o‘xshamaydi. Ma‘lum maqom yo‘lini har bir ijrochi turli hofizlar darajasida yoki o‘z ijro uslubidan kelib chiqib ijro etishi mumkin. Chunki ijrochi maqom yo‘llarini puxta va mukammal ijro etishi uchun o‘z ovozinig imkoniyatlari doirasida asarga ma‘lum o‘zgartirishlar kiritadi. Bunda hofiz ovozinig past-balandligiga qarab, ashulada mavjud bo‘lgan qismlarni qisqartirib yoki ularga “namud” kabi qismlar kiritishi mumkin.

O‘zbek mumtoz musiqasida maqomlar o‘zining alohida lokal xususiyatlarga ega ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Maqomlarimiz uchta yirik lokal uslublarining har biri (Buxoro Shashmaqomi, Farg‘ona - Toshkent maqom yo‘llari va Xorazm olti yarim maqomi) o‘ziga xos uslubiy ko‘nikmalari qolaversa, uslublarining xilma xilligi bilan biridan tubdan farq qiladi.

Xususan Farg‘ona vodiysida gullab yashnagan Farg‘ona - Toshkent maqom yo‘llari maqomlar yo‘lida ishlangan ham murakkab ham xalqchil asarlardan tashkil topgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Dugohi Husayniylar, Giryalar, Segoh, Chorgoh, Bayotlar, Misikinlar bularning barchasi xalqimiz tomonidan necha asrlardan buyon sevib tinglaniladi. Farg‘ona-Toshkent maqomlari – O‘zbekistonda maqomchilik san‘atining yana bir asosiy turkumini tashkil etadi. Farg‘ona vodiysida XIX-XX asrlarda keng tarqalgan turkumli (Farg‘ona-Toshkent maqomlari) va turkumsiz (Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari) ashula va cholg‘u maqom yo‘llari bo‘lib, ular vo‘ha mumtoz musiqa merosida yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Farg‘ona-Toshkent maqomlari - Toshkent va Farg‘ona vodiysi musiqa madaniyatida yuzaga kelgan maqom namunalarining umumlashma nomidir.

Ushbu turkumiy asarlarning murakkablik jihatlari avvalo, musiqiy shaklning mukammal ekanligi qolaversa, ijro texnikasi va keng ko‘lamdagi ovoz imkoniyatini talab qilinishi bilan ham ahamiyatli hisoblanadi. Ushbu maqomlar ijrosiga ko‘proq tik, kuyuk tik va ishkami ovoz turlari mos keladi. Maqomdon ustozimiz Fattohxon Mamadaliyevning ovozlarida ham aynan Farg‘ona - Toshkent maqom yo‘llariga xos tik jarangdor shu bilan bir qatorda “Xasta ishkami ovoz” xususiyatlarini ko‘rishimiz mumkin. Bunday ovoz o‘zining ta’sirchanligi bilan tavsiflanadi. Uning eshutilishi go‘yo o‘zidan shikoyat qilayotgandek, samimiy dil izhoridek tuyulib, kishiga o‘zgacha ta’sir qiladi va huzur bag‘ishlaydi. “Bu toifadagi ovozlar bilan ko‘proq dardli, alamli, mungli ashulalar ijro etilsa nihoyatda ta’sirchan chiqadi. “Ishkami ovoz” egalariga kiruvchi hofizlardan yana G‘ulomjon Hojiqulov, Yunusqori Yusupov, Umar Otayev kabi hofizlarni misol qilib aytishimiz mumkin”[3.15-b].

Maqomlarni ijro etishda malaka bilan bir qatorda xotira kuchi ham muhim hisoblanadi. Aynan mana shu omil, maqomlarni aytim yo‘llarini ijro etuvchi ijrochilarni “hofiz” deb atashga sabab bo‘lgan. Bu atamaning ma’nosi arab tilida “xotirasida saqlovchi, “yod biluvchi” ma’nolarini bildiradi. Yana shuni ham aytish joizki, maqomlarning aytim yo‘lini kuylovchi hofizlarning ovoz kuchi yuqori pardalarni zabt eta oladigan va ayni paytda xushovoz bo‘lmoqligi kerak. Bunday ijroga ega bo‘lish uchun ijrochilar ovozni boshqara bilish sir asrorlarini o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim. Bu masala ham anchayin keng doirani qamrab oladi. Yaqin o‘tmishimizda ustoz hofizlar aynan ovoz xususiyatlariga e‘tibor qaratib turli xil fikrlarni bildirishgan. Aynan Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarining mohir ijrochisi sanaladigan Fattohxon Mamadaliyev (Fattohxon hofiz) o‘zining “Milliy musiqa ijrochiligi masalalari” nomli risolasida aynan ovoz turlari, ijrochilik xususiyatlari hamda an’anaviy uslubda ovoz ishlatish uslublari haqida atroflicha ma’lumotlar keltirib o‘tgan.

“Musiqa sadolari olamida inson ovoziga juda katta o‘rin berilgan. Ovoz birinchi musiqa sozi deb ham hisoblanadi, u orqali inson o‘z hissiyotlarini bildiradi. Inson ovoz apparati orqali chiqayotgan barcha tovushlar-ovoz deyiladi. Ovoz-so‘zlashuvchi, kuylovchi, unsiz bo‘ladi. Inson qichqirishi, intiqishi, turli tovushlarni o‘xshatishi mumkin. Tovush qaysi turda bo‘lmasin inson ovozimi yoki musiqa sozi tovushimi uni o‘rganish mumkin. Tovush harakati, uni akustika fani o‘rganadi.”[2.31-b].

Inson havo muxitida gapiradi va kuylaydi, shuning uchun ovoz tovushi- bu havo bo‘laklarini tebranishi uning to‘lqinsimon kuchayishi va pasayishidir. Musiqa sozlarida to‘lqinlar, ovoz hosil qiluvchi vazifasini biror bir jism: simlar, qisilgan lab bajaradi. Odam gapirayotganda uning ovozi havo yo‘nalishi bo‘ylab tashqariga chiqibgina qolmay, ichki a‘zolarida, ham bosh va ko‘krakda tebranish hosil qilib tarqaladi. Odam ovozining manbai bu-ovoz pardalaridir ularning harakati natijasida, tebranish hosil bo‘ladi va ovoz yangraydi. Xiqqildoqda hosil bo‘lgan to‘lqinlar har tomonga tarqaladi: xiqqildoqni atrofidagi teriga, havo yo‘li bo‘yicha tepaga va pastga.

Ovozni “boshqariladigan” qilish, uni, itoatkor asbobga, aylantirish uchun ovoz hosil qilish apparati barcha qismlari koordinasiyasi ustida sistemasi mashaqqatli mehnat talab qilinadi. Bu ishni sodda musiqiy frazalar, murakkab bo‘lmagan o‘quvchi e‘tiborini tovush shakllanishining asosiy momentlariga qaratishga ko‘maklashadigan parchalarda bajarish orqali asta - sekinlik bilan o‘zlashtirish mumkin.

Demak, nafaqat mashqlarni tanlash, balki ularning tonalligini talabalarning individual xususiyatlariga mos kelishi lozim. Baland ovozlar uchun yozilgan mashqlar o‘rta va past ovozlariga tegishli tonalikka, odatda tersiyaga past transpozitsiyalanadi. Ovoz sozlash mashqlar birinchi galda ma’lum texnik ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan, biroq kuylash musiqa bo‘lgani sababli har bir mashq nafaqat texnik jihatdan to‘g‘ri, balki musiqiy, musiqa asari parchasidek bo‘lishi kerak.

Xonandani o'rganish jarayonida fortepiono jo'rliigi muhim rol o'ynaydi, xususan mashqlar ifodali garmonizasiyani nafaqat eshitish, balki musiqiy didni tarbiyalaydi va ma'lum ma'noda tovush sifatiga ta'sir qiladi, uni yangi obertonlar bilan boyitadi va hatto ovoz jarangini faolashtiradi. Tez va sekin templarni birlashtirish jarang tekisligiga erishishda ko'maklashadi. Tez tempda ovoz go'yo o'z nuqsonlarini aniqlab ulguradi (ko'plab pedagoglar fikricha). Tez sur'atdagi mashqlar, ayniqsa, tovushni "silkitish", ya'ni uning haddan ziyod vibratsiyasi bilan kurashishi ayniqsa foydali. Bu o'rinda mushak inersiyasi qonuni, "mushak xotirasi" qonuni ishga tushadi. Tez sur'atda kuylangan mashq silliqroq jaranglaydi, Shu zohati sekin takrorlanganda u tovush silliqligini saqlaydi.



Shu o'rinda xonandalik nafasi xususida ham ikki og'iz so'z ta'kidlash joizki, unga haddan ziyod e'tibor va ba'zida noto'g'ri tasavvur, xonandalarga o'z ovozi, intonasiyasi jarang sifatini nazorat qilish, ijodiy momentlarga yetarli e'tibor qaratishga imkon bermaydi. Shu sababli xonandalarga e'tiborni nafas jarayoniga ortiqcha jalb qilmaslikni tavsiya etgan bo'lardik, ayni paytda uni buzishga ham yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Xonandalik san'ati tarixi, zamonaviy ijrochilik va pedagogik amaliyoti shuni ko'rsatadiki, nafas turlarining har birini bilish professional darajada kuylash uchun yetarli. Xonanda tomonidan nafas olish turlaridan u yoki, bunisini tanlash kuylashdagi qulaylik va tovushning sifatiga bog'liq. O'qituvchi o'quvchining nafasdan qanday foydalanayotganini diqqat bilan kuzatishi kerak. Lekin, agarkı tovush to'g'ri bo'lsa albatta, o'z fikrini unga singdirishdan o'zini chetlashi kerak. Eng asosiysi qanday nafas olish emas, uni qanday sarflashdir. Ovozni to'g'ri hosil qilish uchun quyidagilarni bilish lozim:

- *xaddan tashqari ko'p nafas olmaslik;*
- *keraklicha nafas olmasdan kuylashni boshlamaslik;*
- *tovush xujumi boshlanganda va kuylash davomida, nafas hisini saqlab qolish;*
- *jumla davomida nafasni to'g'ri taqsimlash, nafasning jumla oxirigicha to'liq yetishi, jumla tugagach, qolgan havoni chiqarib yuborish kerak.*

“Nafas olish yengil shovqinsiz (burun va sal ochilgan og'iz orqali). Nafas soniyasining ulushida go'yo tutib qolinadi, va Shu "yashirin" nafasda kuylay boshlanadi. Nafasni juda tejab, nafas olish ustanovkasini saqlashga urinish kerak (xuddi havo olishda davom etayotgandek). Bu tovush tayanchini sezish imkonini beradi. Yanada chuqur nafas olish uchun o'quvchiga o'zi sevgan gul atrini sekin hidlashni tasavvur qilish aytilishi lozim. Bu usul ko'plab taniqli pedagog vokalchilar amaliyotidan o'rin olgan. Xonandalik nafasini asta-sekin rivojlantirish va mustahkamlash muhim omildir.

Xonandalik amaliyotiga doir yuqorida keltirib o'tilgan fikrlar maqomlar ijrosining sifatli va to'la - to'kis mukammal yangrashi uchun zamin yaratadi. Chunki maqom ijrochisi to'g'ri nafas texnikasi, ovoz ko'lami haqida tushunchaga ega

bo'lmay turib qoniqarli ijroga ham erisha olmaydi. Shu sabab bo'lsa kerak usozlarimiz ham shogirdlikni biror bir asarga qo'l urib emas, avvalo ustozining har bir harakatini uzoq vaqt davomida kuzatib o'zlashtirish, unga taqlid qilish asnosida boshlaganlar. Xususan xonandalik amaliyoti ham aynan kuzatish taqlid qilish bilan yillar davomida shakllanib, o'zlashtirib boriladigan jarayondir. Bo'lg'usi maqom ijrochilariga shuni ta'kidlab o'tish lozimki, avvalo maqomlar ijrosini ko'proq tinglash, xonandalik texnikasi va ovoz bilan bog'liq jarayonlar haqida ko'nikmalar xosil qilish va uni amaliyotga keng tadbiiq qilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rajabov Is'hoq. Maqomlar masalasiga doir. – Toshkent. 1963.
2. Rajabov Azamat. An'anaviy xonandalik. O'quv qo'llanma. Buxoro. 2020.
3. Mamadaliyev F. "Milliy musiqa ijrochiligi masalalari" 2001.
4. "Qo'shiq - mening borlig'im" (R.Tursunov va M.Dadaboyeva bahsi); O'zbekiston adabiyoti va san'ati" haftanomasi.2008.
5. Isroilova H. An'anaviy hofizlik san'ati. – Toshkent: Voris-Nashriyot, 2007.

KOMPOZITOR – FARRUX AKRAMOV

M.BAXTIYOROVA,

O'zbekiston davlat konservatoriyasi talabasi

Ilmiy rahbar: **Ch.E. ERGASHEVA, dotsent, PhD.**

Annotatsiya. Mazkur maqolada kompozitor Farrux Isomiddinovich Akramovning hayoti va ijodiy yo'li haqida bayon qilingan. Uning pedagogik va kompozitorlik faoliyati davomida yaratgan asarlari – ijodiy merosi haqidagi ma'lumotlar musiqiy tahlil bilan birga keltirilgan.

Kalit so'zlar: kompozitor, bayan-akkordeon, pyesa, "Omnibus Laboratorium", rondo.

Yosh iqtidorli kompozitor, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a'zosi, xalqaro va respublika tanlovlar sovrindori Farrux Isomiddinovich Akramov 1985 yilning 2 sentabrida Buxoro shahrida tavallud topgan.⁷² Yoshligidan san'atga qiziqqan Akramov ilk musiqiy tahsilni A.Ixtiyorov nomidagi 5-son bolalar musiqa va san'at maktabida bayan-akkordeon sinfida boshlagan. O'sha davrlardan oq kompozitorlik san'atiga bo'lgan qiziqishi tufayli, 13 yoshida akkordeon uchun pyesa yaratgan.

2001-yil M.Ashrafiy nomidagi Buxoro davlat san'at kolleji musiqa nazariyasi bo'limiga o'qishga kirib, 2002-yil o'qishni Hamza nomidagi Toshkent davlat san'at kollejiga ko'chirgan. Bu kollejda ustoz YE.L.Shvarsdan kompozitorlik sir-asrorlarini, fortepiano va boshqa cholg'ularning ijro xususiyatlarini o'rgangan.

Kollejni imtiyozli diplom bilan tamomlagach, 2004 yil O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Kompozitorlik va cholg'ulashtirish" yo'nalishiga davlat granti asosida o'qishga qabul qilingan. 4 yil bu shu yo'nalishda F.Yanov-Yanovskiy sinfida tahsil olib, ko'pgina ko'rik-tanlov, xalqaro hamda respublika ko'rik-tanlov va festivallarida faol ishtirok etgan.

⁷² Biografik ma'lumotlar kompozitor Farrux Akramov bilan suhbat jarayonida yozib olingan. 2023-yil. Oktabr.